

“MANZARA RANGTASVIRINI” O‘QITISHDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mirolim Xudoyberdiev,

Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi kafedrası assisenti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola «Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi» ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda tasviriy san’atda manzara janrida bo‘yoqda ishlashning maqsad va vazifalari, tasviriy san’atni o‘qitishdagi o‘qituvchining mahorati kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Annotation: This article is intended for students and teachers in the specialty "Visual Arts and Engineering Graphics". The article highlights the main aspects of fine art, such as drawing and landscape painting. The scientific and methodological recommendations of the organization of lessons in fine art and the acquisition of skills in drawing, painting and landscape composition are given.

Kalit so‘zlar: Moybo‘yoq, rangtasvir, kartina, mastexin, lessirovka, alla prima, politra, blik, grunt, eskiz, akvarel, uslub, kompozitsiya, axromatik, abstrakt, Rang koloriti, janr, vitraj, natyurmort, to‘yinganlik bo‘yoq, obraz, refleks, ritm, yorug‘lik, personaj, faktura, monumental, byust.

Bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz rivojini tasviriy san’at namunalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Rangtasvir” fani bo‘yicha tuzilgan namunaviy dastur DTS talablari asosida ishlab chiqarilgan bo‘lib, Respublikadagi badiiy ta’lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, tasviriy san’at sohasi bo‘yicha malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek iqtidorli, ijodkor mutaxassis ko‘nikmalarini o‘zida namoyon etuvchi va shu sohaga qiziqish uyg‘ota oluvchi, o‘z yo‘nalishini topishda, ayniqsa, badiiy asarlar yaratish va asar mazmun mohiyatini yuqori darajada badiiy obrazlar orqali etkaza oladigan, malakali kadrlar tayyorlash xozirgi kundagi turgan buyuk maqsadlarimizdan biri “Rangtasvir” fani orqali bo‘lg‘usi mutaxassis nafaqat tasviriy san’at asarlarini chizish yoki ularni ranglar bilan ifoda etish, balki asarlardagi ranglarning uyg‘unligiga hamda issiq-sovuq ranglarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi haqida ham tushuncha berib boradi. Mutaxassis bu bilan biron bir asar ustida ishlash jarayonida har xil ranglar aralashmasidan xosil bo‘lgan rang turlarini yaratish va uni his qilish qobiliyqtini ham rivojlantirib boradi. Rangtasvir nafaqat tasviriy san’at turlaridan biridir, balki shu bilan bir qatorda u tasviriy san’atning hamma turlari uchun asos hamda badiiy mahorat garovi hamdir. U bo‘lg‘usi mutaxassis uchun tasviriy san’at g‘oyalarini ifoda etishda keng imkoniyatlar va erkinliklar tug‘diradi. Rangtasvir fani tasviriy san’atning barcha mutaxassisliklari uchun eng asosiy o‘rinlarda bo‘lib, u badiiy tasvirlash

madaniyatiga ega bo'lgan, realizm an'analariga sodiq bo'lgan kichik mutaxassis - shaxsini shakllantirish maqsadlarini ko'zlaydi.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonparvar bo'lib kamol topish, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz”. “Mamalakatimiz prezidenti SHavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amlga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning **beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi** taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ongu tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu ma'noda, harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlanishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturilamaldir, desak, ayni haqiqat bo'ladi”.

Talabalarni badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tabiat qo'ynida san'at asarlari yaratish, tasviriy san'at asarlarini ko'rish va tushunish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, talabalarga, bo'lajak rassom-pedagoglarga ko'rib-kuzatib, taxlil qilib to'g'ri tasvirlash, atrof-muhitni, borliqni idrok etish, rang sezish, rangtasvir asarlarini yaratish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Realistik rangtasvir ishlash san'ati borliqni xaqqoniy obrazlarda ifoda etish maxoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Rangtasvir, Qalamtasvir, o'quv amaliyoti ochiq xavoda plener sharoiti mashg'ulotlarida talabalar manzara kompozitsiyasida ijod etishga o'rgatish metodikasini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Rangtasvir, o'quv amaliyoti ochiq xavoda plener sharoiti mashg'ulotlarida talabalar manzara kompozitsiyasida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanib o'qitish, talabalarning bu fanni o'zlashtirish darajasi oshadi. Masalan:

-o'qitish jarayonida kompyuter va pedagogik texnologiyalar uyg'unlikda olib borilsa;

- o'quv amaliyoti ochiq xavoda rasm chizish (plener)da dasturiy-pedagogik vositalar ishlab chiqilsa;

-animatsiya va multmediadan foydalanilsa (chiziqlarni chizish yo'nalishlari bo'yicha harakatlantirilsa, ovozli effektlar qo'llanilsa);

-maxorat darslarini (master klas) tashkillashtirilsa;

-eskiz, ranglavxa qisqa muddatli tasvirlarni ob'ektni o'ziga qarab ishlansa.

Talabalar rangtasvirda rang munosabatlarini juda puxta bilishlari muximdir. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslarini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida samarali rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ektranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ektranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yigindisi hosil bo'lgan. Ektranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zargaldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gel'mgols rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och to'qligi va to'yyanganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik ranga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak, Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarshsh, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir, Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'shi eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr ranga ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor, Uchta asosiy-snektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashid rang hosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan to'q qizil va yashil, zangori va zarjaldoq, qizil, sariq, havo rang, sarrish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I. Levitanning «Oltin kuz», «Abadiy sokinlik uzra», I. Shishkinning, «O'rmon yiroqliklari», V. Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin. Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlar insonda tabiatga muxabbat va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi. Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar, etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

Manzara rangtasviri — rangtasvir dasturining kerakli bo'limi bo'lib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir. Tabiat benihoya jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, taxlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks xolda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni xisobga olib tasvirlashda manzaralar juda qo'l keladi. Chunki unda predmetlarda soya, shulalar, rang tuslarining uyg'inligi ifodaviyligi yaqqol ko'rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi. SHu'la («blik») va rangli shu'la («refleks manzaradagi barcha predmetlarda aks etib turadi. CHunki ular yorug'likni yutmaydi, balki yog'dulanib kaytaradi. Nurni o'zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu'lalarni ba'zan sezib qolish qiyinroq boladi. Ammo ularni talaba ilg'ab olishini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun har bir o'rganuvchi yosh rassom o'z bilimini ham nazariy, ham amaliy jixatlarini kitob qo'llanmalaridan o'qib, rangtasvir namunalarini muzey va ko'rgazma zallarida ko'rishi mumkin.

Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato)ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, mo'yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o'xshash. Chuki bunda ham avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng

asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ishlanishi mumkinligidandir. Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shunisi ham borki oq rang qo'shilgach bo'yoqning erkinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish joiz. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

"Yelimli qoplama" deb yuritiladigan qoplamaning yana bir xili quyidagicha tayyorlanadi. Suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unga 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng yelim aralashmasi bo'r va oq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuv bo'lib qolgudek bo'lsa, o'sha yelim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida ko'rishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart. Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi. Buning uchun esa albatta tajriba va o'quv bo'lishi kerak.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan qoraning jigarrangga, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tushlarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tushlarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yoqda ishlash texnikasi juda qulaydir. Shu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar ishlashda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli, moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyati qulay bo'ladi. Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy

tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutoala qilish ham yahshi vositadir.

Moybo'yoqlar uchun moylar va suyultirgichlar

Moybo'yoqlarning asosiy plenka hosil qiluvchi komponenti ba'zi bir o'simliklarning urug'laridan olinuvchi o'simlik moylari hisoblanadi.

Moylar quriganda qanday plenka hosil qilishiga qarab to'rt guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhni zig'ir turidagi moylar tashkil etadi. Ular juda tez qurib, mustahkam bo'ladi, organik eritgichlarda erimaydi. Bu guruhga: zig'ir, kandir moyi va boshqa moylar kiradi.

Ikkinchi guruhni o'simlik turidagi moylar tashkil etadi. Plenka hosil qilish qobiliyati birinchi guruhga nisbatan pastroq, o'zoq vaqtda quriydi. Olingan plenka organik suyultirgichlarda qisman eriydi, qizdirilsa yumshab, erib ketadi. Bu guruhga kungaboqar, soya va boshqa moylar kiradi.

Uchinchi guruhni zaytun turidagi moylar tashkil etadi. Bu moylar to'liq qurimaydi. O'simlik moylari yog' kislotalari (94-98 %) ning glitseridlaridan, ozroq miqdordagi to'yingan va tuyinmagan yog' kislotalari (1-2 %), yuvilib ketmaydigan vositalardan (0,5-1 %) va oqsil modda (0,5 %)lardan tashkil topgan. O'simlik moylarining plenka hosil qilishning asosiy sababi bu ularning tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarining mavjudligidadir. Moylarning yog' kislotalari bilan to'yinganlik darajasi, plenka hosil qilish qobiliyatini xarakterlash uning tarkibidagi yod birligi bilan ko'rsatiladi. Moyning yod birligi qancha ko'p bo'lsa, u shuncha tez quriydi. O'simlik moylarining muhim xususiyatlaridan biri bu uning polimerlash kobilyatidir. Polimerlangan moy tez qurish xususiyatiga ega bo'ladi va yaxshi fizik-ximik xususiyatiga ega bo'lgan plenka hosil qiladi.

"Alla prima" rangtasviri

"Alla prima" tushunchasi lotin tilidagi "alla prima vizta" so'zidan olingan bo'lib, "bir qarashda" ma'nosini beradi va pastasimon bo'yoq bilan qisqa vaqtda ishlashni bildiradi. Bunda kartina bir seansdayoq tayyor bo'ladi. Buning uchun rassomning o'ziga ishonchi kuchli va bo'yoqlar bilan ishlashda tajriba bo'lishi kerak. Bo'yoqlar asosan palitrada aralashtiriladi, bunda yorqin va toza ranglarni topish mumkin. Bu plener sharoitida ishlash uchun juda qulay uslub. Bo'yoqlar qattiq mo'yli mo'yqalamlar bilan qo'yiladi. Polotna sifatida ko'pol to'qilgan xolst yoki kartondan ham foydalanish mumkin.

"Alla prima" uslubida tipik kompaktli va relefsimon tarkibni yaratish mumkin. Uni chetlari yoki konturlarini bemalol sidirib olib, tekislash va qo'shib yuborish mumkin. Buning uchun sigir kilidan yasalgan quruq va yumshoq mo'yqalamlardan foydalanish mumkin. Rang va konturlarning chetlarini shunday qilib yumshoq va

engil kirishib ketuvchi qilish mumkin. Bu usul shuningdek "sfumato" (yoyilgan kontur) deb yuritiladi.

Mastexin bilan ishlash texnikasi

Mastexin bilan ishlash texnikasi "alla prima" rangtasvirining bir varianti hisoblanadi. Oldin monoxrom ranglar bilan kartinaning asosiy strukturasi qo'yiladi, keyin esa elastik mastexin yordamida pasta usuli bilan rang qo'yiladi. Oq releflardan farqli ravishda bu erga bir oz qurigan yuzaga yorug'lik blik qo'yiladi.

Lessirovka va rangtasvirning lessirovka texnikasi

Lessirovka texnikasida ishlash jarayoni juda zerikarli bo'lib, u ko'p vaqt va chidamni talab etadi. Eng avvalo bunda tiniq tasavvur va yaratilajak tasvirning fikriy obrazi juda zarur bo'ladi. Kartina monoxrom usulida ko'riladi. Lessirovka texnikasida ishlangan rangtasvir, xuddi shaffof suvli kulning tubini ko'rgandek asosi va chuqurligigacha ko'rinadi. Ishning birinchi bosqichi tugaganidan so'ng rasm lessirovka bo'yoqlari bilan qoplanadi. Kartinaga keyingi qatlam ranglari, oldingi ranglar hech bo'lmaganda yarmigacha quriganidan so'ng qo'yilishi lozim.

Ko'p qatlamli rangtasvir

Rangtasvirda eng ko'p tarqalgan usullardan biri bu ko'p qatlamli rangtasvir hisoblanadi. Ko'pincha kartinani bir seansdayoq tugatib bo'lmaydi. Kartina eskizga va tugamagan ishga o'xshab qoladi. Rassomda uni qaytadan ishlash istagi paydo bo'ladi. Rassom ishni tugatmaydi va uni "ochiq" qoldiradi. Ko'p qatlamli rangtasvirda yuqorida aytib o'tilgan usul va kombinatsiyalarning barchasi qo'llaniladi. Aniqroq qilib aytganda, kartinani boshlab, keyin uni tugatdim deyish noto'g'ri bo'ladi. Ko'p qatlamli rangtasvir texnikasining ish jarayonida juda ko'p yangi usullar paydo bo'lishi mumkin. Bunda xattoqi ishni tugatishga ko'ra ushbu texnikani qo'llashni o'zi ham juda muhim bo'lib qoladi. Kartina ustida ishlash hamma vaqt "ochiq" bo'lib qolishi va "tugamagan" ish bo'lib tuyulmasligi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda bajarilgan ishning amaliy tomonlariga emas, balki uning badiiy mezonlariga e'tibor berish lozim.

Moybo'yoq rangtasvirining nuqsonlari va ularni tuzatish

Rangtasvir asarining koloritik imkoniyatlari va kartinaning uzoq vaqt saqlanishi faqatgina ishlatiladigan materiallarning sifatigagina bog'liq emas, balki rangtasvir texnologiyasining to'g'ri tanlanganiga ham bog'liq bo'ladi. Rangtasvir asarlarida uchrab turadigan nuqsonlar ko'pincha rassomning rangtasvir texnikasini to'g'ri bilmasligidan yoki past sifatli gruntndan ham kelib chiqishi mumkin. Rassomning kasbiy xatolari turli sabablarga ko'ra yuz beradi. Bo'lar ishni mohiyatini tushunmaslik va eksperiment qilish istagi, shuningdek rassomning shaxsiy xususiyatlariga (kuchli temperamentli) bog'liq bo'lishi mumkin. SHubxasiz harbir rassomda u yoki bu sabablarga ko'ra xatolar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHavkat Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz - T., "O'zbekiston" 2016 y., 14 bet.
2. Bulatov C.S, Jabbarov R.R. Tasviriy san'at asarlarining falsafiy va psixologik taxlili (monografiya). "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010 yil.
3. Tolipov N, Abdurasilov S, Oripova N. "Rangtasvir"-T., 2006
4. Abdirasilov S. "Tasiriy san'at o'qitish metodikasi" Toshkent-2012 yil.
5. Abdirasilov S., Tolipov N. Dastgohli rangtasvir. O'quv qo'llanma "Iqtisod-moliya", Toshkent 2008 y.